


ANDIJON VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO‘YICHA MA’LUMOT

2021- yil 1- aprel holatiga ko‘ra
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)



Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.

Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxona va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.

Korxona va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2021-yil 1-aprel holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.



Ro'yxatdan o'tgan korxonalar

42 315

118,9 % ↑



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar

38 300

119,7 % ↑



Yangi tashkil etilgan korxonalar (2021- yilda)


1 599

84,9 % ↓

Mamlakatimizda qulay ish-bilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiriq qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- aprel holatiga ko'ra, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha
2021- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)

4

25 002




Mas'uliyati cheklangan
jamiyat

2 686



Oilaviy korxona

182



Unitar korxona

5 154



Xususiy korxona

40



Aksiyadorlik jamiyati


299



Boshqa korxonalar

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)




■ 2020- y. ■ 2021- y.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar-mart oylarida, birlikda)


5





Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni (yanvar-mart oylarida, birlikda)




Jami faoliyat koʻrsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soni oʻtgan yilning shu davriga nisbatan **39,9** foizga oshdi



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



■ Dehqonchilik, chorvachilik, ovchilik va bu sohalarda xizmat koʻrsatish
■ Oʻrmon xoʻjaligi
■ Baliq xoʻjaligi




Sanoat yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)


7



Jami faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxona va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **26,6** foizga oshdi



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



141



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

8 324



Ishlab chiqarish sanoati

45



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

165



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish

2021- yil 1- aprel holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxona va tashkilotlari soni 8 675 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 26,6 % ga oshdi.

Jami sanoat korxona va tashkilotlari ko'payishining asosiy omili (o'tgan yilning mos davriga nisbatan), ishlab chiqarish (qayta ishlash) sanoatida – 26,9 % ga (jami sanoatdagi ulushi 96,0 %), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – 25,9 % ga (jami sanoatdagi ulushi 1,6 %), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – 12,5 % ga (jami sanoatdagi ulushi 0,5 %) hamda suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilish – 15,4 % ga (jami sanoatdagi ulushi 1,9 %) o'sishidir.


Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)

8




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **13,9** foizga oshdi




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




13,7 foizga oshdi



Mikrofimlar




Kichik korxonalar



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




17,3 foizga oshdi



Oilaviy korxonalar




46,2 foizga oshdi




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



O'tgan yilga nisbatan **10,0** foizga oshdi




Xususiy korxonalar



Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxona va tashkilotlar soni (1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)


9



2021- yil 1- aprel holatiga ko'ra, qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 3 199 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 13,9 % ga oshdi. Jami qurilish sohasidagi korxona va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bu – fuqarolik obyektlarini qurish o'tgan yilga nisbatan – 37,6 % ga (jami qurilishdagi ulushi 7,7 %), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari o'tgan yilga nisbatan – 38,2 % ga (jami qurilishdagi ulushi 30,2 %) hamda bino va inshootlar qurishda o'tgan yilga nisbatan – 2,9 % ga (jami qurilishdagi ulushi 62,1 %) o'sishidir.

Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)


2021- yil 1- aprel holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan savdo sohasidagi korxona va tashkilotlar soni 10 919 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 26,1 % ga oshdi. Jami savdo korxona va tashkilotlari soni ko'payishining asosiy omili – avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdoda o'tgan yilga nisbatan – 27,0 % ga (jami savdodagi ulushi 65,8 %), avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdoda o'tgan yilga nisbatan – 22,3 % ga (jami savdodagi ulushi 27,1 %), avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash o'tgan yilga nisbatan – 33,5 % ga (jami savdodagi ulushi 7,1 %) o'sishidir.




Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)


10




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




Mikrofirmalar




Kichik korxonalar




Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




Oilaviy korxonalar



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni




Xususiy korxonalar




Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)


11




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




Mikrofirmalar




Kichik korxonalar




Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




Oilaviy korxonalar



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



Xususiy korxonalar



- Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat

896



- Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash

17



- Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

7



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(2021- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)



119

yashash bo'yicha xizmatlar



1 743

Oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar


2021- yil 1- aprel holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxona va tashkilotlar soni 1 862 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 10,0 % ga oshdi.

Jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxona va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili – oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar o'tgan yilga nisbatan – 10,6 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 93,6 %), yashash bo'yicha xizmatlar o'tgan yilga nisbatan – 2,6 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 6,4 %) o'sishidir.


Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)


13



Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




Mikrofimlar




Kichik korxonalar



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




Oilaviy korxonalar



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



Xususiy korxonalar




Axborot va aloqa sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)


14




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **8,8** foizga oshdi




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni



Mikrofimlar




Kichik korxonalar



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




17,9 foizga oshdi




Oilaviy korxonalar




8,3 foizga oshdi



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



Xususiy korxonalar




Tashish va saqlash sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)


15




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **11,5** foizga oshdi



Kichik tadbirkorlik subyektlari soni



Mikrofimalar




Kichik korxonalar



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




11,1 foizga oshdi



Oilaviy korxonalar




3,4 martaga oshdi



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



O'tgan yilga nisbatan **50,0** mfoizga oshdi




Xususiy korxonalar



2020- y.


2021- y.






Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)





Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2021- yil 1- aprel holatiga ko'ra 2 943 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 009 taga yoki 52,2 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2 686 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 907 taga yoki 51,0 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yilning yanvar-mart oylarida 119 ta yangi oilaviy korxonalar tashkil etildi.


Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni


(1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2021- yil 1- aprel holatiga ko'ra 27 064 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 5 487 taga yoki 25,4 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 25 002 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 5 185 taga yoki 26,2 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yilning yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 1341 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 18 taga yoki 1,4 % ga oshganligini ko'rish mumkin.






Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni 2021- yil 1- aprel holatiga ko'ra, 378 tani tashkil etib, ulardan 359 tasi yoki 95,0 % i faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 44 taga yoki 13,2 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yilning yanvar-mart oylarida viloyatimizda 11 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-mart oylarida, birlikda)



	<i>Jami</i>	<i>shundan:</i>	
		<i>qo'shma korxona</i>	<i>xorijiy korxona</i>
Rossiya Federatsiyasi	77	51	26
Qirg'iz Respublikasi	42	25	17
Belarus Respublikasi	9	5	4
Qozog'iston Respublikasi	7	3	4
Ozarbajjon Respublikasi	5	4	1
Ukraina Respublikasi	3	1	2
Tojikiston Respublikasi	2	2	0
Turkmaniston Respublikasi	1	0	1


O'zbekiston MDH doirasida amaldagi o'zaro savdo tartibini yomonlashtirmaydigan tamoyillarga asoslangan, to'laqonli erkin savdo hududini tashkil etish tarafdoridir. Bu MDH hududida barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda muhim omil bo'lmoqda.

Bugungi kunda Andijon viloyati hududida MDH davlatlarining kapitali ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni oshib borayotganini inobatga olganda ularning asosiy ulushi (jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarga nisbatan) Rossiya Federatsiyasi 21,4 %, Qirg'iz Respublikasi 11,7 %, Belarus Respublikasi 2,5 %, Qozog'iston Respublikasi 1,9 % va Ozarbajjon Respublikalarida 1,4 % ga to'g'ri kelmoqda.

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni

(2021- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)

20



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)

	2017- yil	2018- yil	2019- yil	2020- yil	2021- yil
Jami	157	177	245	316	359
<i>shu jumladan:</i>					
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	4	6	19	26	24
Sanoat	119	136	167	184	202
Qurilish	7	7	11	20	22
Savdo	10	12	25	37	51
Tashish va saqlash	4	3	2	2	3
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	6	6	7	9	10
Axborot va aloqa	0	0	2	5	4
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	1	1	1	5	5
Boshqa turlar	6	6	11	28	38

Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)

21



Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni (2021- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)

22


	Jami	shundan:	
		qo'shma korxona	xorijiy korxona
Andijon viloyati	359	217	142
Oltinko'l	19	13	6
Andijon	31	23	8
Baliqchi	8	3	5
Bo'ston	7	7	0
Buloqboshi	13	8	5
Jalolquduq	13	7	6
Izboskan	7	4	3
Ulug'nor	7	5	2
Qo'rg'ontepa	9	7	2
Asaka	20	16	4
Marhamat	14	7	7
Shahrixon	26	16	10
Paxtaobod	8	6	2
Xo'jaobod	14	11	3
Andijon sh.	144	70	74
Xonobod sh.	19	14	5

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Andijon shahrida 144 ta (jamidagi ulushi 40,1 %), Andijon 31 ta (8,6 %), Shahrixon 26 ta (7,2 %), Asaka 20 ta (5,6 %), Oltinko'l 19 ta (5,3 %), Xonobod shahri 19 ta (5,3 %), Marhamat 14 ta (3,9 %), Xo'jaobod 14 ta (3,9 %), Jalolquduq va Buloqboshi tumanlarida 13 tadan (3,6 %) tashkil etadi.

Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2021- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)

23




2021- yil 1- aprel holatiga ko'ra, ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Andijon shahri (31,2 %), Asaka (9,0 %), Andijon (7,2 %), Shahrixon (6,8 %), Oltinko'l (5,2 %), Qo'rg'ontepa (5,1 %), Izboskan (5,0 %), Baliqchi (4,9 %), Marhamat (4,5 %), Jalolquduq (4,0 %), Paxtaobod (3,8 %), Xo'jaobod (3,6 %), Buloqboshi (3,1 %), Bo'ston (2,8 %), Ulug'nor (2,0 %), tumanlari va Xonobod shahri (1,8 %) hissalariga to'g'ri keladi.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2021- yilning yanvar-mart oylarida, birlikda)


2021- yilning yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Andijon shahri (28,9 %), Andijon (9,4 %), Asaka (9,1 %), Shahrixon (6,3 %), Paxtaobod (5,8 %), Izboskan (5,4 %), Oltinko'l (4,8 %), Baliqchi (4,7 %), Xo'jaobod (4,1 %), Jalolquduq (4,1 %), Qo'rg'ontepa (3,8 %), Bo'ston (3,7 %), Buloqboshi (3,1 %), Marhamat (3,0 %), Ulug'nor (1,9 %) tumanlari va Xonobod shahri (1,9 %) ulushiga ega.



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning hududlar kesimidagi soni


(2021- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)

24



Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimidagi soni


(2021- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)



2021- yil 1- aprel holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi, Andijon shahri (35,7 %), Asaka (7,4 %), Shahrixon (6,9 %), Andijon (6,8 %), Izboskan (5,0 %), Oltinko'l (4,7 %), Baliqchi (4,4 %), Xo'jaobod (4,3 %), Qo'rg'ontepa (4,3 %), Marhamat (4,2 %), Paxtaobod (4,0 %), Jalolquduq (3,9 %), Buloqboshi (2,9 %), Ulug'nor (1,8 %), Bo'ston (1,7 %) tumanlari va Xonobod shahri (2,0 %) hissasiga tegishli.

Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning qo'shma korxona va xorijiy korxonalarga taqsimlanishi (2021- yil 1- aprel holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi, % da)

25




2017-2021- yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning uchinchi muhim yo'nalishi - xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o'sib borishi, eng avvalo, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining hududlar bo'yicha soni

(2021- yilning yanvar-mart oylarida, birlikda)


26




2021- yilning yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar hududlar kesimida taqsimlanganda Bo'ston (22,7 %), Andijon (14,4 %), Shahrixon (12,6 %), Andijon shahri (10,9 %), Qo'rg'ontepa (10,9 %), Asaka (7,6 %), Izboskan (6,7 %), Baliqchi (5,9 %), Oltinko'l (2,5 %), Xonobod shahri (1,7 %), Buloqboshi (1,7 %), Paxtaobod (0,8 %), Marhamat (0,8 %) va Jalolquduq (0,8 %) tumanlari ulushiga ega.

Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

(2021- yilning yanvar-mart oylarida, birlikda)



O'tgan yilga nisbatan % da



Statistik ko'rsatkichlarga izohlar


Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxona va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

Kichik korxona va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.



← Orqaga qaytish

Korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot

STIR kodini kiriting

Agar tushunarsiz bo'lsa, rasmni bosing:

fhucrf

Rasmdagi kodini kiriting

Ochish

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi
2020 yil.

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

**Andijon viloyati statistika
boshqarmasi Statistik
registrarni yuritish bo'limi
Tel.: (74) 228-29-74**